

“TASDIQLANGAN”
“CONTACT FINANCE”
mas’uliyati cheklangan jamiyat
mikromoliya tashkiloti



Bosh direktori

O'.S.Ziyaydinov

2025-yil “1” iyul №8/25-son

“RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Istiqbolli loyihalar milliy
agentligi



Direktorning birinchi o‘rinbosari

V.Yu.Pak

2025-yil “6” avgust

№ PA087-1 - son

M.O’.

OBLIGATSIYALAR CHIQARILISHI TO‘G‘RISIDAGI QAROR “CONTACT FINANCE” mas’uliyati cheklangan jamiyat mikromoliya tashkiloti

| | | | | | | | | | | | | |
|---------------------------------|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Identifikatsiya raqami berildi: | R | U | 3 | 0 | 1 | P | 1 | 0 | 8 | 7 | T | 4 |
|---------------------------------|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

Egasing nomi yozilgan, hujjatsiz shaklda, nominal qiymati 100 000 (bir yuz ming) so‘mdan 30 000 (o‘ttiz ming) dona umumiy summasi 3 000 000 000 (uch milliard) so‘mlik korporativ obligatsiyalar.

Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar ochiq obuna usulida joylashtiriladi.

Obligatsiyalarning ushbu chiqarilishi 1 (birinchi) chiqarilishdir.

Tasdiqlangan: “CONTACT FINANCE” mas’uliyati cheklangan jamiyat mikromoliya tashkiloti 2025-yil “1” iyul №8/25-sonli ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi bayoni bilan obligatsiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror tasdiqlangan.

“CONTACT FINANCE” mas’uliyati cheklangan jamiyat mikromoliya tashkiloti 2025-yil “1” iyul №8/25-sonli ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi bayoni bilan bilan obligatsiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va elektron pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Andijon shahar, Mustaqillik MFY, Amir Umarxon ko‘chasi, 22-uy.

Muloqot telefoni: (+998 55) 202-50-02. Elektron pochta manzili: info@contactfinance.uz.

Bosh direktor

Bosh buxgalter



Ziyaydinov O‘ktamjon
Soyibkomolovich

Madaminov Farxod
Adxamjon o‘g‘li

2025-yil “1” iyul

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga doir hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: “HBCapital” mas’uliyati cheklangan jamiyati;

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi: 7/2025-sonli, 2025-yil “1” iyul;
Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.O. va imzosi: R.I.Mustafin



2025-yil “1” iyul

| | |
|--|---|
| 1. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning ko'rinishi va turi (oddiy, yutuqli, foizli, foizsiz (maqsadli) va hokazo) | Egasining nomi yozilgan, foizli korporativ obligatsiyalar |
| 2. Ushbu obligatsiyalar chiqarilishining shakli | Hujjatsiz |
| 3. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning nominal qiymati (so'm) | 100 000 (bir yuz ming) so'm |
| 4. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning soni (dona) | 30 000 (o'ttiz ming) dona |
| 5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm) | 3 000 000 000 (uch milliard) so'm |
| 6. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar egalarining huquqlari | <p>Ushbu chiqarilishdagi har bir obligatsiya o'z egasiga teng huquqlarni beradi.</p> <p>Obligatsiya egasi quyidagi huquqlarga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> - belgilangan muddatda so'ndirilyotgan obligatsiyalar bo'yicha obligatsiyalarning nominal qiymatini va kupon daromadini foizlar ko'rinishida olish; - obligatsiya egalari qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'z tavakkalchiliklarini sug'urta qildirish; - depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish; - "CONTACT FINANCE" mas'uliyati cheklangan jamiyat mikromoliya tashkiloti (keyingi o'rinlarda "Jamiyat" deb yuritiladi) o'z kapitali miqdori kamaytirilganda, qayta tashkil etilganda va/yoki tugatilgan taqdirda obligatsiyalar egasi, obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarning bekor qilinishini yoki muddatidan oldin bajarilishini hamda yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga; - amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, jamiyat obligatsiya egalariga kiritilgan mablag'larni, shuningdek, to'lanishi lozim bo'lgan foizlarni (haqiqiy muomala davri uchun) qaytarish majburiyatini oladi (obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan oraliq davrga); - obligatsiya egasi o'z obligatsiyalarini erkin sotish va boshqacha tarzda begonalashtirish huquqiga ega; - jamiyatdan obligatsiyalar chiqarish shartlariga rioya qilishning iloji yo'qligi to'g'risida investorlarni darhol yozma ravishda xabardor qilishni talab qilish; - jamiyatning obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarini bajarishi va ushbu majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish; - mazkur qarorda belgilangan vazifalarni bajarish munosabati bilan davlat organlari va sudlarda o'z manfaatlarini himoya qilish; - obligatsiya egasi O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega. - Jamiyatning o'z kapitali miqdori kamayganda ikki ish kuni ichida ommaviy axborot vositalarida hamda korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) belgilangan tartibda e'lon qilinadi. |
| 7. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni sotib olinishiga nisbatan cheklashlar | Jamiyat ustavida va ushbu obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorida obligatsiyalarni sotib olinishiga nisbatan cheklashlar mavjud emas. |
| 8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so'm) | 2 800 000 000 (ikki milliard sakkiz yuz ming) so'm tashkil qiladi. |
| 9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi) | Jamiyat tomonidan ilgari aksiyalar joylashtirilmagan. |
| 10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi) | Jamiyat tomonidan ilgari obligatsiyalar joylashtirilmagan. |

11. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi

| | |
|---|---|
| 11.1. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna) | Ushbu chiqarilishdagi korporativ obligatsiyalar soni cheklanmagan investorlar o'rtasida ochiq obuna usulida joylashtiriladi. |
| 11.2. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining muddati | <p>Obligatsiyalarni joylashtirish muddati – mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 365 (uch yuz oltimish besh) kun davomida joylashtiriladi.</p> <p>Obligatsiyalarni joylashtirishni boshlanish sanasi – obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalariga e'lon qilingan sanadan keyingi 15 (o'n beshinchi) kun. Agar obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi jamiyat hisob-kitob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, bu holda obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi ushbu kunlardan keyingi birinchi ish kunida boshlanadi.</p> <p>Jamiyat korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni 44-modda oltinchi qismining "b" kichik bandida ko'rsatilgan talablarga muvofiq obligatsiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot oshkor qiladi.</p> <p>Obligatsiyalarning joylashtirishning tugash sanasi – chiqarilishning so'nggi obligatsiya joylashtirilgan kun. Biroq obligatsiyalarni joylashtirishni yakunlanish sanasi, mazkur chiqarilish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 365 (uch yuz oltimish besh) kundan oshmasligi lozim.</p> |
| 11.3. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining tartibi | <p>Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar ochiq obuna usulida soni cheklanmagan investorlar o'rtasida qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdo tashkilotchisi ("Toshkent" Respublika Fond Birjasi aksiyadorlik jamiyati) orqali joylashtirilishi amalga oshiriladi.</p> <p>Bunda obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha bitimlar tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining savdo qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.</p> <p>Jamiyat tomonidan ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan anderrayter xizmatlarini ko'rsatuvchi "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati investitsiya vositachisini jalb qilgan holda amalga oshiriladi.</p> <p>Anderrayter to'g'risida ma'lumotlar:</p> <ul style="list-style-type: none">- to'liq nomi: "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati;- qisqartirilgan nomi: "HBCapital" MCHJ;- joylashgan joyi: O'zbekiston Respublikasi, 170119, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 53-uy;- professional faoliyatni amalga oshirishga uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi: 2020-yil 25-mayda berilgan 1399-sonli;- litsenziyaning amal qilish muddati: cheklanmagan;- litsenziyani bergan organning nomi: O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorlarini rivojlantirish Agentligi. <p>Jamiyat va obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha anderrayter o'rtasidagi tuzilgan shartnomaga muvofiq qo'yidagilar anderrayterning asosiy vazifalariga kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none">- jamiyat bilan birgalikda obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirishning maqbul tuzilmasini shakllantirish;- investitsiya memorandumini tuzish va investorlarga taqdim etish;- anderrayterlik xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq jamiyat obligatsiyalarini joylashtirish;- obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan mablag'larni jamiyatga to'lash; |

| | |
|--|---|
| | <p>- ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni joylashtirish, qonunchilik hujjatlariga muvofiq soni cheklanmagan investorlar o'rtasida joylashtirilishini amalga oshirish.</p> <p>Mazkur shartnomada, shartnoma bilan belgilangan muddatlarda joylashtirilmagan obligatsiyalarni anderrayter tomonidan o'z hisobidan olinishi, shuningdek ushbu muddat va uni belgilash tartibi nazarda tutilmagan.</p> |
| <p>11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni</p> | <p>Jamiyat obligatsiyalari huquqlari hisobi O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va Investitsiya vositachilari tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda yuritiladi.</p> <p>Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi to'g'risidagi ma'lumotlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - to'liq nomi: "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyati; - tashkiliy huquqiy shakli: aksiyadorlik jamiyati; - joylashgan yeri va pochta manzili: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo-Ulugbek tumani, Mustakillik shoh ko'chasi, 107-uy; - telefon: (71) 211-09-09. e-mail: info@uzcsd.uz, veb-sayti: www.uzcsd.uz. - Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 21-maydagi 263-sonli qaroriga asosan yuritadi. <p>Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi to'g'risidagi ma'lumotlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - to'liq nomi: "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati; - tashkiliy huquqiy shakli: mas'uliyati cheklangan jamiyati; - joylashgan yeri va pochta manzili: 170119, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 53-uy; - telefon: (74) 234-35-39. e-mail: info@hbcapital.uz, veb-sayti: www.hbcapital.uz. - "HBCapital" MCHJ o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorlarini rivojlantirish Agentligi tomonidan 2020-yil 25-mayda berilgan 1399-sonli litsenziyaga asosan yuritadi. |
| <p>11.5. Ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanadigan joylashtirilayotgan obligatsiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi</p> | <p>Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanmaydi, shu munosabat bilan joylashtirilayotgan obligatsiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish ko'zda tutilmagan.</p> |
| <p>11.6. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi</p> | <p>Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning bahosi nominal qiymatida, ya'ni 100 000 (bir yuz ming) so'mdan joylashtiriladi.</p> |
| <p>11.7. Obligatsiyalarni to'lash shartlari va tartibi</p> | <p>Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar uchun to'lovlar qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdo tashkilotchisi qoidalariga muvofiq tuziladigan bitimlar asosida naqdsiz hisob-kitoblar orqali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshiriladi.</p> <p>Obligatsiyalar bo'yicha pulsiz vositalar bilan to'lovlar ko'zda tutilmagan.</p> |
| <p>11.8. Ushbu obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan obligatsiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi</p> | <p>Ushbu chiqarilgan obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, jamiyat amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu holat to'g'risida rasmiy xabar e'lon qiladi, shuningdek Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan sanaga obligatsiyalar egalari ro'yxatini so'raydi.</p> <p>Ushbu chiqarilgan obligatsiyalar amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan paytdan e'tiboran jamiyat ushbu qaror asosida chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizlarni hisoblashni to'xtatadi.</p> |

| | |
|---|---|
| | <p>Jamiyat ushbu chiqarilishdagi barcha obligatsiya egalariga amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda obligatsiyalar uchun to'lov sifatida olingan pul mablag'larni, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan foizlarni (obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan oraliq davrga), ushbu obligatsiyalar chiqarilishi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida qaytarib berish majburiyatini oladi.</p> <p>Obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida "Biznes-Daily Media" Nashriyot uyi Mas'uliyati cheklangan jamiyatga tegishli Biznes Daily "Birja" gazetasi hamda korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) belgilangan tartibda e'lon qilinadi.</p> <p>Jamiyat tomonidan obligatsiya egalariga obligatsiyalarning chiqarilishi amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganidan so'ng, to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun foizlar to'lanmaydi.</p> |
| 12. Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha ta'minot | Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar jamiyatning o'z kapitali miqdori doirasida muomalaga chiqarilayotganligi sababli, obligatsiyalar bo'yicha ta'minot ko'zda tutilmagan. |
| 13. Obligatsiyalar muomalasining tartibi va muddatlari | <p>Obligatsiyalarning muomalasi oldi-sotdi bitimlari, shuningdek amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan, obligatsiyalarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Obligatsiyalar qimmatli qog'ozlarning uyushgan birja va uyushmagan birjadan tashqari savdolari orqali muomalada bo'lishi mumkin.</p> <p>Qimmatli qog'ozlarning uyushgan birja savdolarida obligatsiyalar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari qimmatli qog'ozlar savdo tashkilotchisining qoidalariga asosan, mazkur qimmatli qog'ozlarga mavjud bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda, amalga oshiriladi.</p> <p>Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan birjan tashqari savdolarida obligatsiyalar bo'yicha tuziladigan bitimlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.</p> <p>Obligatsiyalarga bo'lgan huquqlar oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.</p> <p>Obligatsiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar, ushbu obligatsiyaga bo'lgan huquqlar o'tgan kundan e'tiboran oluvchiga o'tadi.</p> <p>Obligatsiyalarning muomala muddati - obligatsiyalar joylashtirilishi boshlangan sanadan boshlab 1 080 (bir ming sakson) kun. Mazkur muddat foizlarni to'lash maqsadida har biri 30 kunga teng bo'lgan 36 ta oraliq davrlarga bo'lingan.</p> <p>Obligatsiyalar muomalasining boshlanish sanasi - ushbu obligatsiyalar muomalasi boshlangan kun hisoblanadi.</p> <p>Obligatsiyalar muomalasining tugash sanasi - ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar muomalasi boshlangan kundan boshlab 1081 (bir ming sakson bir) kunga o'tgan kun.</p> |
| 14. Obligatsiyalar bo'yicha so'ndirish va daromadlarni to'lash shartlari. | |
| 14.1. Obligatsiyalarni so'ndirish shakli (pul vositalari, mol-mulk, ayirboshlash va hokazo): | Obligatsiyalarni so'ndirish shakli faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so'mda amalga oshiriladi. |
| 14.2. Obligatsiyalarni so'ndirish muddatini o'z ichiga olgan so'ndirish tartibi va | Obligatsiyalarni so'ndirish sanasi, joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 1 081 (bir ming sakson bir) kunga o'tgan kun |

| | |
|--|---|
| <p>shartlari:</p> | <p>hisoblanadi.</p> <p>Mazkur korporativ obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga asosan obligatsiya egalari, o'zlariga tegishli obligatsiyalarni to'liq so'ndirish sanasigacha egalik qilish huquqiga ega.</p> <p>Obligatsiyalarni so'ndirish, qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiyalar egalarining reestrtdagi ma'lumotlariga asosan obligatsiyalar egalarining bank rekvizitlariga pul mablag'larini (nominal qiymati va so'nggi oraliq davr uchun foiz daromadlarini) o'tkazish yo'li bilan obligatsiyalar muomalasi boshlangan kundan boshlab 1 080 (bir ming sakson) holatiga shakllantirilgan reestr asosida 10 (o'n) bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.</p> <p>Agar to'lov summasini amalga oshirishdagi sanada bank hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha dam olish kuniga to'g'ri keladigan bo'lsa, to'lov summasini to'lash shu kundan keyingi birinchi ish kunida amalga oshiriladi.</p> <p>Agar daromadni to'lash reestrtda obligatsiyalar egasining bank rekvizitlari to'g'risida to'liq bo'lmagan va/yoki noto'g'ri ma'lumotlar bo'lsa, jamiyat obligatsiyalar egalariga to'lanadigan mablag'larning kechiktirilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.</p> <p>Bunday vaziyatga yo'l qo'ymaslik uchun obligatsiya egalari joriy oraliq vaqt tugashidan oldin jamiyatga o'z bank rekvizitlarini ko'rsatgan holda murojaat qilishga haqli. Shuningdek, jamiyat Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan reestrni o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.</p> <p>Agar obligatsiyalar egalarining reestrtda obligatsiyalar egalarining bank rekvizitlari to'g'risida ma'lumot bo'lmasa yoki ma'lumotlar o'z ahamiyatini yo'qotsa, ushbu obligatsiyaning egasiga tegishli mablag'lar jamiyat tomonidan saqlanadi va bu pul mablag'lariga saqlangan muddat uchun foiz hisoblanmaydi.</p> <p>Pul mablag'larini so'ndirish uchun to'lovlar amalga oshirilgan kunlar uchun obligatsiyalar egalariga foizlar hisoblanmaydi.</p> |
| <p>14.3. Obligatsiyalarning har biri bo'yicha to'lanadigan daromadni belgilash tartibi (daromad miqdori yoki uni belgilash tartibi, shuningdek har bir kupon bo'yicha to'lanadigan daromad miqdori yoki uni belgilash tartibi):</p> | <p>Obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi, obligatsiyalarning butun muomaladagi muddati uchun belgilanadi va obligatsiyalar nominal qiymatining yillik 21 (yigirma bir) foizni tashkil etadi.</p> <p>Obligatsiya egasi belgilangan muddat oralig'ida obligatsiyaning nominal qiymatidan (amaldagi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda foiz daromadidan to'lash manbaidan ushlab qolingani soliqni inobatga olgan holda) obligatsiyalarni chiqarish bo'yicha o'rnatilgan shartlarida foizli daromad olish huquqiga ega.</p> <p>Obligatsiyalar bo'yicha foizli daromadlar jamiyat tomonidan tegishli oraliq davrning oxirgi sanasida tuzilgan obligatsiyalar egalari reestrtda ro'yxatdan o'tgan obligatsiya egasiga to'lanadi.</p> <p>Dastlabki sotib olinganda bitta obligatsiyaga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 va 12-chi oraliq davr uchun foizli daromad quyidagicha aniqlanadi:</p> $D_n = N * C_n * (E - E_f) / 365$ <p>bunda:</p> <p>D_n – obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foizli daromatlari; N – obligatsiyaning nominal qiymati; E – 30 kunlik joylashtirish davrlarning oxirgi sanasi; E_f – hisoblangan oraliq davrdagi, obligatsiyaning sotib olingan sana; C_n – obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi (yillik hisobda), n-oraliq davrning tartib raqami (n=1, 2, 3, 4 ... 12).</p> <p><i>**Izoh: Foizli daromad miqdori bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilanadi.</i></p> <p>Bir obligatsiyaga sotib olingandan keyingi har bir oraliq davr uchun yillik foizli daromad miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:</p> $D_n = N * C_n * E / 365$ |

| | |
|--|--|
| | <p>bunda: D_n – obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foizli daromadlari; N – obligatsiyaning nominal qiymati; E – 30 kunlik joylashtirish davrlarning oxirgi sanasi; C_n – obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi (yillik hisobda), n-oraliq davrning tartib raqami ($n=1, 2, 3 \dots 36$). <i>**Izoh: Foizli daromad miqdori bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilanadi.</i></p> |
| <p>14.4. Obligatsiyalar bo'yicha daromadlarni to'lash tartibi va muddati, har bir kupon bo'yicha daromadni to'lash tartibi va muddatini o'z ichiga olgan holda:</p> | <p>Obligatsiya egalari foizli daromadlari O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan obligatsiyalar muomalasi davrining 30, 60, 90, 120, 150, 180, 210, 240, 270, 300, 330, 360, 390, 420, 450, 480, 510, 540, 570, 600, 630, 660, 690, 720, 750, 780, 810, 840, 870, 900, 930, 960, 990, 1020, 1050 va 1080-chi kunlariga yopilgan obligatsiya egalari reestri asosida hisoblanib to'lab beriladi.</p> <p>Jamiyat oraliq davr tugaganidan keyin 10 (o'n) bank ish kunidan kechiktirmay Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan tuzilgan obligatsiyalar egalari reestridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, hisoblangan daromadni obligatsiyalarni ushlab turuvchilarning bank hisob raqamlariga o'tkazadi.</p> <p>Har bir obligatsiya bo'yicha foizli daromadni muomala muddati davomida har 30 kunlik oraliq davrlar uchun hisoblanadi va to'lanadi. Bunda obligatsiya bo'yicha foizli daromadlarni to'lash oraliq davrlarning yakuniga o'rnatilgan tartibda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiya egalari reestriga asosan amalga oshiriladi. 1-chi oraliq davrning boshlanish sanasi obligatsiyalarni joylashtirish boshlanish sanasiga to'g'ri keladi, shuningdek keyingi oraliq davrlarning boshlanish sanalari tartib bo'yicha bo'yicha 31, 61, 91, 121, 151, 181, 211, 241, 271, 301, 331, 361, 391, 421, 451, 481, 511, 541, 571, 601, 631, 661, 691, 721, 751, 781, 811, 841, 871, 901, 931, 961, 991, 1021 va 1051 -chi kunlarga to'g'ri keladi.</p> <p>Daromadlarni to'lash uchun jamiyat Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga daromad hisoblangan har bir oraliq davrning oxirgi kuni holatiga obligatsiyalar egalari reestrini shakllantirish uchun so'rov yuboradi.</p> <p>Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan taqdim etilgan obligatsiyalar egalari reestri asosida jamiyat foiz daromadlarini to'lash uchun obligatsiyalar bo'yicha daromad olishga vakolatli shaxslarning har biriga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar miqdorini hisoblab chiqadi.</p> <p>Jamiyat oraliq davr tugaganidan keyin 10 (o'n) bank ish kunidan kechiktirmay Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan tuzilgan obligatsiyalar egalari reestridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, hisoblangan daromadni obligatsiyalarni ushlab turuvchilarning bank hisob raqamlariga o'tkazadi.</p> <p>Obligatsiya egasining yozma murojaati asosida daromadlar obligatsiya egasining investitsiya vositachisiga to'lanishi mumkin, keyinchalik ushbu mablag'lar obligatsiya egasining investitsiya vositachisidagi shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.</p> <p>Agar daromadni to'lash reestrda obligatsiyalar egalari bank rekvizitlari to'g'risida to'liq bo'lmagan va/yoki noaniq ma'lumotlar mavjud bo'lsa, daromadni to'lash uchun reestrda ro'yxatdan o'tgan obligatsiyalar egalari foizli daromadni to'lash kechiktirilganligi uchun jamiyat javobgar bo'lmaydi.</p> <p>Bunday vaziyatga yo'l qo'ymaslik uchun obligatsiya egalari joriy vaqt oralig'ining tugashidan oldin jamiyatga o'z bank rekvizitlarini ko'rsatgan holda murojaat qilishga haqli. Shuningdek, jamiyat Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan daromadlarni to'lash reestri o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.</p> |

| | |
|---|---|
| | <p>Agar to'lov manbaida jamiyat tomonidan foizlar ko'rinishidagi daromad solig'ini ushlab qolish bo'yicha soliq qonunchiligi normasi mavjud bo'lsa va obligatsiya egasi daromad solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lsa (shu jumladan, daromad solig'idan ozod qilish), bunday obligatsiya egasi bu haqda jamiyatga oldindan yozma ravishda xabardor qilishi shart.</p> <p>Bunday ogohlantirish xati quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim: imtiyoz qo'llanilgan me'yoriy hujjatning nomi (xatga ilova qilingan ushbu me'yoriy hujjat nusxasi bilan), obligatsiya egasiga bunday imtiyoz qo'llaniladigan asos va obligatsiya egasining bank rekvizitlari.</p> <p>Ogohlantirish xati obligatsiya egasi tomonidan joriy oraliq davr tugashidan 5 (besh) kalendar kunidan kechiktirmay jamiyatga taqdim qilinishi lozim.</p> <p>Ushbu obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan va to'langan foiz daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar har bir oraliq muddat tugaganidan keyin amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qilinadi.</p> |
| <p>14.5. Obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish ehtimoli va shartlari, xususan: muddatidan oldin so'ndirishning bahosi (qiymati), obligatsiyalar muddatidan oldin so'ndirishga undan oldin taqdim etilishi mumkin bo'lmagan muddat, shu bilan birga emitent tomonidan muddatidan oldin so'ndirish to'g'risidagi axborotni oshkor qilish tartibi:</p> | <p>Jamiyat obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish, obligatsiyalar joylashtirilgan sanadan boshlab 750 (yetti yuz ellik) kundan ilgari so'ndirishni amalga oshirish mumkin emas, bunda ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi, obligatsiyalarni joylashtirish muddatlarida joylashtirilmaligi, jamiyat o'z kapitali miqdori kamaytirilganda va/yoki jamiyat qayta tashkil etilgan va tugatilish hollari mustasno.</p> <p>Obligatsiya egasi obligatsiyalarning 750, 780, 810, 840, 870, 900, 930, 960, 990, 1020 va 1050 kunlar oraliq davrlari tugashidan kamida 10 (o'n) bank ish kunidan oldin jamiyatga ushbu obligatsiyalarni muddatidan oldin qisman so'ndirish bo'yicha ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.</p> <p>Obligatsiya egasi yuqoridagi muddatlarga amal qilgan holda, o'ziga tegishli bo'lgan obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha arizasini jamiyatga taqdim qiladi.</p> <p>Jamiyat ushbu obligatsiya egasining muddatidan oldin obligatsiyalarini so'ndirish bo'yicha arizasi kelib tushgan kunda, jamiyatning ishtirokchilari ushbu obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bahosi (qiymati) va ushbu obligatsiya bo'yicha hisoblangan foizli daromadlarini to'lash shartlari hamda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan ushbu obligatsiyalarni harakatsizlantirish sanasiga obligatsiya egalari reestrini tuzish bo'yicha topshiriqnoma berish yuzasidan qarorlar qabul qiladi.</p> <p>Jamiyat mazkur qaroriga muvofiq obligatsiya egasiga obligatsiyaning nominal qiymati hamda ushbu obligatsiya bo'yicha hisoblangan foizli daromadlarini ariza olingan paytdan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida arizada ko'rsatilgan bank rekvizitiga o'tkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.</p> <p>Obligatsiya egasiga jamiyat ishtirokchilari qaror qabul qilgan kundan boshlab, mazkur obligatsiyalarga to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun foizlar to'lanmaydi.</p> <p>Jamiyat ishtirokchilari jamiyat ustaviga muvofiq mazkur obligatsiyalarni muddatidan oldin jamiyat ixtiyori bilan qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga egadir.</p> <p>Jamiyat obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida obligatsiya egalarini 10 (o'n) bank ish kuni oldin yozma shaklda obligatsiya egalarining reestrinda aks ettirilgan ma'lumotlari (manzillari) bo'yicha xabardor qiladi.</p> <p>Jamiyat obligatsiya egalarining arizalariga asosan, mazkur obligatsiya egalarining obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga ushbu obligatsiyalarni harakatsizlantirish hamda obligatsiyalarni harakatsizlantirish sanasiga obligatsiya egalari reestrini tuzish</p> |

| | |
|---|--|
| | <p>bo'yicha topshiriqnoma beradi.</p> <p>Bu holatda jamiyat obligatsiya egalariga obligatsiyaning nominal qiymati hamda obligatsiya bo'yicha hisoblangan foiz daromadlarini jamiyat ishtirokchilari qaror qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariydan olingan obligatsiya egalari reestrda ko'rsatilgan bank rekvizitiga o'tkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.</p> <p>Jamiyat ixtiyori bilan obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha jamiyatning ishtirokchilari qarori qabul qilingan kundan boshlab, muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha murojat etgan obligatsiya egalariga mazkur obligatsiyalariga to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun foizlar to'lanmaydi.</p> <p>Bunda obligatsiya egalari belgilangan tartibda obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish huquqiga hamda jamiyat esa qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'ladi.</p> <p>Jamiyat yuqorida ko'rsatilgan shartlar yuzaga kelgan kundan 2 (ikki) ish kuni ichida korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) ushbu fakt to'g'risida rasmiy xabarni e'lon qilib, ma'lumotlarni obligatsiya egalariga yetkazadi.</p> |
| <p>15. Emitent tomonidan obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:</p> | <p>Mazkur obligatsiyalarni chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) oshkor qilinadi.</p> <p>Jamiyatning obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorining asl nusxalari bilan Andijon viloyati, Andijon shahar, Mustaqillik MFY, Amir Umarxon ko'chasi, 22-uyda joylashgan jamiyatning ma'muriy binosida, xaftaning ish kunlari soat 9⁰⁰ dan 18⁰⁰ gacha bo'lgan vaqt davomida tanishish mumkin.</p> <p>Muloqot telefoni: (+998 55) 202-50-02.</p> <p>Elektron pochta manzili: info@contactfinance.uz</p> |
| <p>16. Obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larni Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablariga muvofiq ishlatish maqsadi to'g'risida ma'lumot (yashil korporativ obligatsiyalar uchun):</p> | <p>Mazkur chiqarilish doirasida yashil korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarilishi ko'zda tutilmaganligi sababli obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larni Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablariga muvofiq ishlatish maqsadi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas.</p> |
| <p>17. Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablari doirasida erishiladigan rejalashtirilgan natijalar (KPI) to'g'risida ma'lumot (yashil korporativ obligatsiyalar uchun):</p> | <p>Mazkur chiqarilish doirasida yashil korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarilishi ko'zda tutilmaganligi sababli Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablari doirasida erishiladigan rejalashtirilgan natijalar (KPI) to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas.</p> |
| <p>18. Yashil standartlarga muvofiqlik sertifikatining mavjudligi, shuningdek, bunday sertifikatni bergan tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar (yashil korporativ obligatsiyalar uchun):</p> | <p>Mazkur chiqarilish doirasida yashil korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarilishi ko'zda tutilmaganligi sababli yashil standartlarga muvofiqlik sertifikatining mavjudligi, shuningdek, bunday sertifikatni bergan tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas.</p> |
| <p>19. Mazkur chiqariluv uchun asos bo'lgan seriyali obligatsiyalar dasturi to'g'risidagi ma'lumotlar (obligatsiya dasturi doirasida ilgari chiqarilgan va joylashtirilgan obligatsiyalar soni, umumiy hajmi, ro'yxatdan o'tgan sana, raqami va hokazo):</p> | <p>Mazkur chiqarilish doirasida seriyali obligatsiyalar muomalaga chiqarilishi ko'zda tutilmaganligi sababli seriyali obligatsiyalar dasturi mavjud emas.</p> |